



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th October, 2025

MILLIY HARAKATLI O‘YINLARNING TARIXI, TURLARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Alikulov Akmal Akramovich

Qo‘qon davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada milliy harakatli o‘yinlarning tarixi, turlari va pedagogik imkoniyatlari hususida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Ajdodlarimiz shunga mos ravishda tayyorgarlik ko‘rib, ham ruhiy, ham jismoniy o‘sishga erishganlar. Umuman olganda, milliy sport turlarining barchasi ota-bobolarimizning yashash tarzi, madaniyati va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda rivojlangan. O’sha kezlarda kimdir chavandoz, kimdir qilichboz, yana kimdir mergan sifatida tanilgan. Shuningdek, turli o‘yinlar va mashqlar tufayli ajdodlarimizda har qanday holatdan olib chiqadigan chaqqonlik, yakkama-yakka olishuvga xos uquv shakllangan.

Kalit so’zlar. Milliy harakatli o‘yinlarning tarixi, Milliy harakatli o‘yinlarning turlari va pedagogik imkoniyatlari, milliy sport turlari, o‘zbek kurashi, Turon” kurashi, O‘zbek jang san’ati, uloq, ko‘pkari, chovgon, belbog‘li kurash.

Kirish

O‘zbek xalq milliy o‘yinlari o‘zining uzoq o‘tmishi, boy tarixiga ega bo‘lgan, ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o‘tib kelayotgan, ma’naviy boyligimiz, qadriyatlarimizdan sanaladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab, milliy qadriyatlarimiz, an’ana-yu udumlarimiz, shu jumladan, xalq o‘yinlarini qayta tiklashga katta e’tibor qaratildi.

Sportning an’anaviy turlari bilan birgalikda milliy sport turlari hamda xalq o‘yinlari ham tobora rivojlanib boryapti. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida o‘zbek kurashi bo‘yicha musobaqalar tashkil etilib, sportning shu turi ustalari o‘rtasida jahon championati muntazam o‘tkazib kelinayotgani O‘zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro qalbini g‘ururga to‘ldiradi. Aslida biz faxrlansak arziyidigan milliy sport turlari juda ko‘p. Ularning orasida “Turon” kurashi, O‘zbek jang san’ati, uloq, ko‘pkari, chovgon, belbog‘li kurash va kamondan o‘q otish



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th October, 2025

alohida e'tiborga molik. Ayniqsa, oxirgi yillarda O'zbek jang san'atiga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Bu sport turi milliy ruh bilan sug'orilgan bo'lib, yoshlarda abjirlik, epchillik kabi xususiyatlarni shakllantirishda, ularning o'tkir zehnli va ko'rakm qaddi-qomatli bo'lib ulg'ayishlarida muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, otabobolarimiz azal-azaldan insonni jismonan chiniqtiruvchi, salomatlikka ijobiy ta'sir etuvchi mashqlarga jiddiy e'tibor qaratishganini ko'ramiz. Masalan, ko'pkari musobaqasi har bir ishtirokchidan chavandozlik mahoratidan tashqari jismoniy kuch, o'tkir zehn va yetti o'lchab bir kesish salohiyatiga ega bo'lishni talab qiladi. Ajdodlarimiz shunga mos ravishda tayyorgarlik ko'rib, ham ruhiy, ham jismoniy o'sishga erishganlar. Umuman olganda, milliy sport turlarining barchasi otabobolarimizning yashash tarzi, madaniyati va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda rivojlangan. O'sha kezlarda kimdir chavandoz, kimdir qilichboz, yana kimdir mergan sifatida tanilgan. Shuningdek, turli o'yinlar va mashqlar tufayli ajdodlarimizda har qanday holatdan olib chiqadigan chaqqonlik, yakkama-yakka olishuvga xos uquv shakllangan.

Muhokama va natijalar. Milliy o'yinlari, ayniqsa, bolalar orasida keng yoyilgan. Xususan, mahallalarda o'tkazilayotgan turli tadbirlarda aksariyat bolalar "Qulqocho'zma", "Oq terakmi, ko'k terak", "Podachi", "Charxpalak", "O'rda to'p", "Chigi", "Qo'tir echki" kabi o'yinlarda o'zaro bellashib, kim epchilu, kim chaqqonligini aniqlab oladilar. Shuningdek, "Uzuk olish", "Ignasanchish", "Poyondoz", "Sultonchalar jangi", "Ignasip, angishovna" singari xalq o'yinlari ham yillar osha bizgacha yetib kelgan. Mazkur o'yinlar ishtirokchilariga sinchiklab qarasangiz, har birida abjirlik, murakkab holatni to'g'ri baholash, qiyin vaziyatdan chiqib ketish xususiyatlari qaror topganiga amin bo'lasiz. Shundan xulosa qilish mumkinki, milliy sport turlari va xalq o'yinlari yoshlarni sog'lom voyaga yetkazish, ularga ta'lim-tarbiya berishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, milliy qadriyat va urf-odatlarni asrab-avaylashda ularning o'rni beqiyos.

Darhaqiqat, sport turlari va milliy o'yinlar o'ziga xos qadriyat sifatida avlodlardan avlodlarga o'tib boradi. Ularni ardoqlagan yoshlar qalbida Vatanga muhabbat



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th October, 2025

tuyg‘usi qaror topadi, ruh shakllanib, xalqimizning an’ana va urf-odatlarini e’zozlash hissi yanada kuchayadi. Xullas, milliy o‘yinlar yoshlarni o‘zbekona tarbiyalashning eng ta’sirchan vositalaridan biridir. Bu o‘yinlar qanchalik keng yoyilsa, vatanparvar yoshlar safi shunchalik kengayadi.

Milliy o‘yinlar avloddan-avlodga meros bo‘lib, o‘tib kelayotgan muhim faoliyat va ijtimoiy pedagogik jarayondir. O‘zbekistonda o‘yinlarni to‘plash, ularni tarbiya tizimida ahamiyatini o‘rganish, xalqimizning qadriyatlarini o‘yinlar orqali tiklash, ma’naviy-ma’rifiy jihatlarimizni yangilash ularni turkumlarga bo‘lib, asosiy olimpiada sport turlarini o‘zlashtirishga ta’sirini kuzatish amalga oshirilmoqda. Xalq o‘rtasida qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz rasm-rusumlarimiz, an’analarimiz, milliy o‘yinlar, sport turlari xam unitilgan bo‘lib ular istiqlol sharofati bilan qayta tiklandi. Milliy o‘yinlar o‘z maqsad, mazmun-mohiyati bilan ijtimoiy taraqqiyotning ma’lum davrlariga xos tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, avlod shakllanishida, uning jismoniy takomillashuvida alohida mustaqil vosita bo‘lib xizmat qilgan. E’tiborli jihat shundaki bolalarning yoshiga, jinsiga hatto ijtimoiy axvoliga qarab mazkur o‘yinlar mazmunan o‘ziga xos “sodda yoki murakkab”, “og‘ir yoki yengil”ligi bilan ajralib turadi. “Kun va tun”, “Bekinmachoq”, “Olib qochar”, “Oqsoq qarg‘a”, “Quvlashmachoq”, “Tortishmachoq”, “Lanka tepish”, “Chovgon”, “Oq terakmi-ko‘k terak” va boshqa o‘yinlar shular jumlasidandir.

Milliy harakatlari o‘yinlar barcha davrlarda jamiyat rivoji va taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan. Bunning sabablari quyidagicha izohlanadi:

Birinchidan, insonda o‘yinga bo‘lgan tabiiy ehtiyoj mavjud bo‘lib, u hayotdagি bo‘sh vaqtни to‘ldirish, ortiqcha energiyani sarflash va etishmagan kuchlarni to‘plashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, o‘yinlar xalq tarixining ajralmas qismi va ifodasiidir. Ular orqali xalqning turmush tarzi, mehnati, tajribasi, tashvishi, kurashlari va yutuqlari aks etgan. Shu tariqa, o‘yinlar orqali insoniyatning tarixi, muammolari va niyatları o‘rganiladi.

Uchinchidan, o‘yinlar inson madaniyatining eng qadimiy shakllaridan biri bo‘lib, ular ko‘pgina ma’naviy sohalarni (raqs, teatr, musiqa, sport, marosimlar va boshqalar) ifoda etadi.

To‘rtinchidan, o‘yinlar sog‘lomlashtiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Ota-



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th October, 2025

bobolarimiz xalq o'yinlari va musobaqalari orqali aqlni sog'lom, rujni tetik va jismoniy holatni mustahkam saqlagan. Sog'lom avlodlarni tarbiyalashda o'yinlar asosiy omil bo'lib xizmat qilgan.

Beshinchidan, o'yinlar eng samarali tarbiya vositasidir. Bolalar o'yinlar orqali hayotga tayyorgarlik ko'rgan, qiyinchiliklarni engishni o'rgangan va ishda g'alaba qozonish uchun mashq qilgan.

Olinchidan, o'yinlar ajdodlarimiz tajribasini o'zida mujassamlashtirgan madaniy meros va zamondoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodni aqliy, ruhiy va jismoniy barkamollikka erishishga yordam beruvchi beba ho manba hisoblanadi.

Demak, milliy o'yinlar xalqning tabiiy va tarixiy ehtiyojlari asosida shakllangan, ular xalqning turmushi, mehnati, tajribasi, kurashlari va yutuqlarini boshqa shaklda ifoda etadigan, inson madaniyatining eng qadimiy va boy ko'rinishlari, ma'naviy sohalarning muhim manbalari, sog'lom avlodni tarbiyalashda asosiy vosita va har tomonlama rivojlanishga xizmat qiluvchi muhim omildir.

U.Radjabovning fikricha, "Harakatli o'yinlarning eng muhim va ustuvor tomoni shundaki, o'zin joylari ma'lum chegara bilan belgilanadi hamda o'zin qoidalariga to'liq rioya qilishni talab etadi. O'zin qoidalarini bilib-bilmay buzganlarga jarima yoki shartli jazolar beriladi".[1;71] Bizningcha, ko'p hollarda o'zin shartlariga amal qilmaslik uni o'ynatishdan maqsad nimaligi yoki mazmun-mohiyatini chuqur bilmaslik oqibatida turli munosabatlarni keltirib chiqaradi. Jumladan, shunchaki vaqt o'tkazish, zerikishning oldini olish va h.k. Holbuki, harakatli o'yinlar nafaqat jism, balki iroda sifatlari tarbiyasiga qaratilgani bilan ham ahamiyatlidir.

Bu borada taniqli olim T.S.Usmonxo'jaevning quyidagi fikri e'tiborga loyiq: "Ovchilar, "G'ozlar, "Kartoshka ekish", turli estafetali o'yinlarda, hatto harakatlar yugurish, yiqilishlar, to'p tushirib qo'yish va uni ushlab qolish kabi holatlar raqiblarining zavqini oshirsa, jamoa a'zolarining jahlini qo'zg'aydi. Tomoshabinlarda esa ko'tarinki kayfiyatni yuzaga keltiradi. "Oq terakmi, ko'k terak", "G'ozlar" kabi o'yinlardagi qo'shiq, she'rlarning kuyylanishi va aytilishi o'quvchilarda nutqni o'stirish, tomoq yo'llarini chiniqtirishda o'ziga xos tarbiyaviy jihatlar kasb etadi".[2;60]

Mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishda, avvallo, harakatli o'yinlar mazmunidagi milliy an'analarga xos bo'lgan milliy harakatli o'yinlarni tanlab olish



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th October, 2025

zarurati yuzaga keladi. Bu borada G‘.Salimovning boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya darslarini milliy harakatli o‘yinlar vositasida tashkil qilishga oid tadqiqot ishida harakatli o‘yinlar klassifikatsiyaga ajratiladi. Bu xalq harakatli o‘yinlar, milliy (qadriyatlarga tayangan) harakatli o‘yinlar va harakatli o‘yinlar.

Xalq harakatli o‘yinlar – bu butun dunyo xalqlari tomonidan o‘ylab topilgan, lekin o‘sha millat o‘yinini o‘z mentalitetiga moslab amaliyotga tatbiq etilgan o‘yinlar hisoblanadi.

Milliy harakatli o‘yinlar – bu millatning ajdodlari tomonidan yaratilgan va milliy an’analarni o‘zida jo etgan o‘yinlar hisoblanadi.

Harakatli o‘yin – bu u yoki bu sport turigan ixtisoslashgan hamda sportchini yuqori natijaga etaklaydigan hamda sport turining ayrim elementlarini o‘zida jo etgan harakatli o‘yinlardir.[3;47]

“Harakatli o‘yinlarning asosiy mazmunini harakatlarning va o‘yinchilar faoliyatining xilma-xilligi tashkil etadi. O‘yinlarga to‘g‘ri rahbarlik qilinganda ular organizmning yurak-qon tomir, muskul va nafas olish tizimlariga ijobiy ta’sir etadi. Harakatli o‘yinlar funktsional imkoniyatlarni oshiradi, harakatlarni bajarishda tananing katta va kichik muskullarini ishga soladi, bo‘g‘inlar harakatanchanligini oshiradi”.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib milliy harakatli o‘yinlar tushunchasini quyidagicha izohlash mumkin: milliy merosimizning uzviy va ajralmas qismi bo‘lgan, xalqimizga asrlar mobaynida ruh, ko‘tarinkilik, shijoat va sog‘liq ato etib kelgan hamda sog‘lom avlodni shakllantirishda muhim o‘rin tutadigan, yosh avlodning jismoniy, ruhiy, estetik rivojlanishiga hissa qo’shadigan o‘yinlardir.

Milliy o‘yinlarning kelib chiqishi uzoq o‘tmishga ya’ni oldingi avlodlarimizga borib taqaladi. Masalan: “Chovgon” o‘yini A.Rudakiy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Sa’diy Sheroziy, Xusrav Dexlaviy, Alisher Navoiy asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Azaldan avlod-ajdodlarimizning kun tartibiga ham mahalla-mahalla bo‘lib jismoniy madaniyat mashqlari bilan baxslashganliklari qadim qo‘lyozmalarda, adabiy asarlarda chop etilganligi bugungi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotgan emas.

O‘rta Osiyo Milliyлари орасида о‘ynaladigan halq o‘yinlari asosan “Navro‘z” kirishi bilan boshlanib ketgan. A.Firdavsiy o‘zining “Shoxnoma” асарда ham Rustam va Isfandiyor o‘rtasidagi bellashuvni misol qilib ko‘rsatish mumkin.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th October, 2025

Milliy o‘yinlar oliy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda talabalarni har tomonlama rivojlantirishga ular sog‘ligini mustahkamlashga, talabalarning dunyoqarashiga, o‘rtoqlari o‘rtasida do‘stlikni mustahkamlashga, bir-biriga ko‘maklashishga, ekstremal holatda o‘zini tuta olishga, jamoasini himoya qilish olishga, jismoniy rivojlanishiga va sport turlari sirlarini mukammal o‘zlashtirishga kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Radjabov U., Miraxmedov F. Umumta’lim maktablarida milliy harakatli o‘yinlarning ijtimoiy-pedagogik asoslari // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2018. – № 1. – B. 71
2. Usmonxo‘jayev T.S., Xo‘jayev F. Harakatli o‘yinlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 60-b
3. Салимов Ф.М. Миллий ҳаракатли ўйинлар асосида 7–10 ёшли ўқувчиларнинг жисмоний сифатларини ривожлантириш самарадорлиги. Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 147 б.